

ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDA FALSAFIYLIK VA RUHIYAT TALQINI

Saidova Zarnigor Bahodirovna

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi.

zarnigorsaidova2004@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20081374>

Annotatsiya. Yozuvchi ushbu asarida istiqloqlga erishgan yillardagi davr voqealarini yorib bergan. Asar orqali inson yashab turgan jamiyat, dunyoni hamda o‘zini anglab yetadi. Asardagi muvozanat bu me‘yor. Hayotda barcha narsaning o‘z me‘yori mavjud. Aytadigan gaplarimiz, qiladigan harakatlarimiz, egallayotgan ilmimiz hammasining me‘yori bor. Dunyoda, jamiyatimizda biz bilgan va bilmagan me‘yorlar bor. Yozuvchi muvozanatning buzilishi nimalarga olib kelishini bir necha insonlar, balki butun bir katta davlat misolida tushuntirib bera olgan.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bek Hamdam, yozuvchi, “Muvozanat”, me‘yor, asar, istiqloq, davr, dunyo.

Annotation. In this work, the writer reveals the events that took place during the years of gaining independence. Through the work, a person comes to understand the society in which they live, the world, and themselves. The balance depicted in the work represents moderation. In life, everything has its own measure. The words we speak, the actions we take, and the knowledge we acquire all have their proper limits. In the world and in our society, there are norms we are aware of and others we are not. The writer explains what the disruption of this balance can lead to, illustrating it through the example of several individuals and even an entire large state.

Keywords: Ulugbek Hamdam, writer, “Balance,” norm, work, independence, period, world.

Аннотация. В данном произведении писатель раскрывает события периода обретения независимости. Через произведение человек осознаёт общество, в котором он живёт, мир и самого себя. Равновесие, отражённое в произведении, — это мера. В жизни у всего есть своя мера. Наши слова, наши поступки и знания, которыми мы овладеваем, — всё имеет свои пределы. В мире и в нашем обществе существуют нормы, о которых мы знаем и не знаем. Писатель объясняет, к чему может привести нарушение этого равновесия, на примере нескольких людей и даже целого большого государства.

Ключевые слова: Улугбек Хамдам, писатель, «Равновесие», норма, произведение, независимость, период, мир.

KIRISH. Bir qancha hikoya, qissa va romanlari bilan tanilgan, mashhur yozuvchilarimizdan biri Ulug‘bek Hamdam ko‘plab asarlarida inson ichki meni, ruhiyati, o‘zini va uni o‘rab turgan tabiat, jamiyat va davr voqealari aks etuvchi asarlari mavjud. Shunday asarlaridan biri “Muvozanat” tomoni hisoblanadi. “Muvonazat” keyingi yillarda o‘zbek adabiyotida yaratilgan eng yaxshi romanlardan biri sifatida e‘tirof etilgan maqolalar bilan birga bu asarning tili, badiiyati haqida salbiy fikrlar ham paydo bo‘lgandi. Ulug‘bek Hamdamning o‘zi bu kabi fikrlarga nisbatan shunday deydi: “Tanqidlarda jo‘yali tuzatishlar albatta, bor. Shukrki, buni qabul qilmaslik darajasida ojiz emasman.

Ayni damda romanning tabiati, yozuvchining individual uslubi, soʻz qoʻllashdagi oʻziga xosliklari bilan bogʻliq kurakda turmaydigan yozgʻirishlar, yoʻq joydan nuqson qidirishga ruju qoʻyishlar ham mavjudligini ham dangal aytish kerakki, bu tutimning sogʻlom tanqidga mutlaqo aloqasi yoʻq...” Bundan tashqari Oʻzbekistonda Ulugʻbek Hamdamning “Muvonazat” asarini har kim oʻz qarichi yetgudayin tahlil qilayotgan bir paytda bu roman Amerika Qoʻshma Shtatlarida qiziqish uygʻotdi.

“Muvozanat”ning Amerikadagi muxlisi Richal Narrid tadqiqotiga munosabat bildirish maqsadida asarni yana bir bor oʻqib chiqish zarurati tugʻildi, deya yozadi oʻzbekistonlik adabiyotshunos olimi Zulxumor Mirzayeva.

Olima “Muvozanat”ning Amerikadagi eʼtirofi borasida davom etadi:

“Natijada, romanda tasvirlangan har qanday voqelik faqat tashqi xususiyat, yagona alomat bilangina bogʻliq emasligi; totalitar tuzum va oʻtish davridagi ogʻir turmush voqealarini badiiy oʻzlashtirish, ularni zamondoshlarning ichki dunyosi, ruhiy olami orqali atroflicha taftish etishda keng imkoniyatli ramziy obrazlardan foydalanishning oʻziga xos usullari; joy nomlari, tanlangan ismlar qahramonlarning ichki va tashqi konfliktlarida chuqur majoziy maʼno kasb etganligi; eng muhimi, Olam muvozanatining asosi, uning meʼyorini taʼminlash vazifasi yuklangan ulugʻ insonlar qismati chuqur badiiy - falsafiy mazmunda ifodalanganligi maʼlum boʻldi. Ochigʻi, asarning bu xususiyatlarini uni ilk bor oʻqiganimda ilgʻay olmagandim.”[1]

“Muvozanat” romanining soʻzboshisida, yaʼni “Muvozanat”- oʻtish davri koʻzgasida Dilmurod Quronov filologiya fanlar doktori, professor shunday yozadi.

“Nazarimda, oʻshanda Ulugʻbek koʻpchiligimiz, ayniqsa, qirq yosh tevaragidagi bizning avlod ruhiyatiga koʻzgu tutgandek boʻlgandi. Bundan ilgariroq oʻtgan davra suhbatlarining birida ustoz O.Sharafiddinov adabiyotimizda realizm imkoniyatlari hali toʻla ochilgani yoʻqligini taʼkidlagan edilar. “Muvozanat” oʻzbek nasrining ayni shu imkoniyatdan kengroq foydalanish yoʻlidagi dadil va muvaffaqiyatli qadamlaridan biri oʻlaroq dunyoga kelgandir”[2]

Endi yozuvchi Ulugʻbek Hamdam ushbu romanni yozgan yilga eʼtibor qilaylik. 1997-yilda romanni yozib tugalladi. Ayni istiqloq yillarida yozgan. Va u tugʻilgan yilga qaraylik. 1968-yilda dunyoga keldi. U mustaqillik azob-uqubatini boshdan kechirgan va istiqloq yillaridagi qiyinchilikni koʻrgan. Asarni yozgan yilda u 29-30 yoshlar atrofida edi. Shu yoshda shuncha jasorat, shunchalik holatni teran va falsafiy jihatdan anglab, uni qogʻozga tushira olish uchun katta mahorat, katta isteʼdod talab qiladi. Va buning barchasi unda mujassam edi. Endi esa yozuvchi asaridagi falsafiylikka toʻxtalaylik va shuni unutmaslik lozimki, eng muhimi yozuvchi soʻzdan judayam oʻrinli foydalana olgan.

“Arslonning oʻligi ham arslon “ deya muallif, Muhammadjon akaning oʻlimini his qilgan chogʻi, qarindoshlarini toʻplab vasiyat qilganda qaynagʻasi Norqul bilan boʻlgan tortishuvda, oʻgʻli Asqarni himoya qilish jarayoniga nisbatan qoʻllagan. Birgina shu soʻz bilan yozuvchi Muhammadjon akaning, avval, katta lavozimda faoliyat olib borgani, uni hali ham kuchdan qolmaganini bildirib oʻtgan.

Yoki "Umr ariqdagi suvdek" deganda esa qanchalik kuchli falsafiylik bor. Umr qanchalik uzun boʻlmasin, ortga qarasak, huddi ariqdan suv bir lahzada oʻtgani kabi oʻtib ketishini koʻrsatib bergan. Bu yerda vaqtning qanchalik tez oʻtib ketishini, suv misolida oydinlashtirdi.

“Eshikning ham qulog‘i bor” deya Muhammadjon aka jiyani Yusufga, ayni istiqloлга erishishimizni va yangi tarix yozilishini aytgan chog‘i, boshqalar eshitib, jiyaning yosh umri xazon bo‘lmasligi uchun aytilgan edi.

Mirazimning esa “ dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi” deya ta‘riflar ekan, uning o‘qishdan maqsadi bilim olish emas, balki diplom oldingmi olding, boshqalardan bir pog‘ona baland bo‘lasan qabilida o‘qiyotgani, ilm nima? bizga nima uchun kerak? tarixni o‘rganishdan maqsad nima? nima uchun shuncha insonlar tarixni o‘rganmoqda qizig‘i yo‘qligi, unga pul, boylik, mol-dunyo bo‘lsa bo‘ldi, ayni paytda faqat o‘zi yaxshi yashasa bas, ekanligini yozuvchi birgina maqol bilan ochib berdi.

Yusuf akasi Amirga “Odamlar o‘z amallariga ko‘ra uch toifaga ajralishini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Oliy nizomni himoya qiluvchilar.
2. Oliy nizomni buzuvchilar.
3. Loqaydlar.

Bunda oliy nizom deganda, tinchlik va farovonlikni ta‘min etuvchi qonun va qoidalar.

Bunda oliy nizomni himoya qiluvchi, ya‘ni umumiy olganda yaxshilik qiluvchilardan Yusuf o‘z otasi Odil akani misol qilib keltiradi. Va aytmoqchi bo‘lgan narsam, tinchlik va farovonlikni asrash, nomoz o‘qishdan ustun ekanligini ko‘rsatishdir. Ya‘ni shunchaki nomoz o‘qib yurib yaxshilik qilmay yuradiganlardan ko‘ra, nomoz o‘qimasa ham insonlarga yaxshilik qilib, Olohni qalbida tan olib, sadaqa berish, farzandlarini voyaga yetkazishni ustun ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ayrimlar bor faqat nomoz o‘qiydi, ammo uning amali yo‘q. Yaxshilik qilmaydi. Lekin shunday insonlar borki, namoz o‘qishga vaqt topa olmasligi mumkin, biroq ular mehnat qiladi. Yaxshiliklar qilib, farzandlarini chiroyli tarbiyalab, halol yeb, halol ishlab, halol yediradilar”.

Yozuvchi davlatni aravaga o‘xshatadi. Aytaylik aravani bir inson bu tomonga tortsa, boshqasi boshqa joyga, boshqalar yana boshqa tomonga tortadi. Xo‘sh, bu arava endi qaysi tomonga yuradi? arava joyidan siljiy olmaydi. Bir joyda qimirlab turaveradi. Davlatni ham har kim o‘zicha hohlagan tomonga yurgazsa, unda rivojlanish kuzatilmaydi. Davlatni boshqarishda xalq birlashmog‘i darkor. Shundagina rivojlanish, takomillashishni ko‘rishimiz mumkin.

Yozuvchi shu davrdagi insonlar davlatni boshqarar ekan, birlashish kerakligini judayam kech tushunib yetganini ko‘rsatadi. Tushungandan boshlab ular birlashdi va asta - sekinlik bilan taraqqiyot rivojlana bordi.

Yusuf aytadi. Payg‘ambarimiz shunday deganlar: “ Hech qachon o‘lmaydigandek dunyo uchun, ertaga o‘ladigandek oxirat uchun yasha”.

Ushbu jumlar orqali yozuvchi insonlarni dinga targ‘ib qilayotgani yo‘q, aksincha u insonlarning o‘lgunimizcha bo‘lgan vaqt davomida yaxshi ishlar qilib, o‘zimizdan biror bir narsa qoldirish haqida aytmoqda. Masalan, kimdir kimgadir yordam berishi, ilm olib uni o‘rgatish, biror narsani kashf etish, qo‘lidan kelgunicha savob ish qilishni nazarda tutgan.

Jaloliddin Rumiy “Odamlar Ka‘baga turli tomondan keladi, lekin hammani istagi bir – Oloh” ekanligini aytgan. Yozuvchi esa buni Yusuf tilidan aytib, hamma insonlar Olohning yoniga turli din bilan borishi mumkin.

Dinlar turli xil bo'lgani bilan insonlarning maqsadi Olloh ekanligini aytar ekan, biz insonlarning maqsadimiz bir, lekin unga yetish uchun barchamiz turli yo'llar orqali boramiz. Nima uchun birlashib birga bora olmaymiz demoqchi bo'lgan.

Yusufning o'g'li o'lganida bir gapni eslaydi. "Yaxshi gapgayam, yomon gapgayam farishtalar omin deydi". Ushbu jumlar orqali yozuvchi, har bir inson o'zidan chiqayotgan gapni o'ylab aytish lozimligini, aytar ekan unga javob bera olsagina aytishi kerakligini aytmoqchi.

Chunki aytgan gapimiz amalga oshganda, yoki biror kishini ko'nglini og'ritib qo'ysak, keyin pushaymon bo'lgandan foyda yo'q. Zero "Aytigan so'z - otilgan o'qdir".

Yana yozuvchining falsafiyligini nimalarda ko'rishimiz mumkin. "Ko'nglimda bir yori, qo'ynimda bir yor" degan edi bir shoir deydi Yusuf. Va insonlar dilida shoirga qo'shiladi. Buni hohlaydi, biroq tilida bunday qila olmasligini aytish orqali jamiyatimizda ikkiyuzlamachilik ko'payganini shu birgina shoirning she'ri orqali ochib bera oldi. Jamiyatimizda, agarda, shu gapni aytishsa uni tanqid qilamiz, ayblaymiz. O'ylab ko'radigan bo'lsak, gap faqat yor haqida emas.

Ko'pincha shunday holatlar bo'ladi, biz dilimizda shu holatga qo'shilamiz, biroq uni tilimizga chiqara olmaymiz. Aytaylik, poraxo'rlik, korupsiyaga duch keldik, uni kimdir fosh qilmoqchi bo'ldi. Albatta, unga dilimizda qo'shilamiz, qo'llab-quvvatlaymiz. Biroq hayotda unga yordam bermaymiz, buni ayta olmaymiz. Shu davr nuqtai nazaridan qaraganda ham shunday.

Qanchadan qancha poraxo'rlik bo'ldi. Insonlar esa shunchaki bir chetda tomoshabin bo'ldi.

Aslida, bu judayam katta xato. Biz buni qanchalik yashirar, unga loqayd qarashda davom etarkanmiz. Davlatimiz ichdan yemirilib boraveradi. Uning taraqqiyotini hohlasak, bunga befarq bo'lmasligimiz darkor.

Jaloliddin Rumiyning yana bir fikri asarda keltiriladi va bu asarning mohiyatini ochishga xizmat qilgan. Bilamizki, danakning ichki va tashqi tomoni mavjud. Ichki tomoni bu mag'zi.

Tashqi tomoni esa qopiq. Agar biz uning mag'zini eksak hech narsa unib chiqmaydi.

Ikkalasi bir bo'lgandagina u o'sib, nihol bo'ladi. Ramziy ma'noda esa qobiq bu jism, modda, insonning vujudi. Mag'zi esa jon, ya'ni ruh. Asardagi har bir voqeda ruh yetakchilik qilgan. Insonda ichki va tashqi men mavjud bo'lib, asar bosh qahramoni Yusuf ham bu men bilan kurashadi va yengadi. Amir esa bu kurashda yengiladi. Shu sababdan u o'z muvozanatini yo'qotdi.

XULOSA. Qisqa qilib aytganda, yozuvchi muvozanatning buzilishi nimalarga olib kelishini bir necha insonlar, balki butun bir katta davlat misolida tushuntirib bergan. Ulug'bek Hamdam mustamlakachilik zahmatini ko'rgan, istiqlol davridagi muammolar, qiyinchiliklar bilan yuzlashti. Ularni teran anglab yetdi va uni o'z falsafiy dunyoqarashi bilan qog'ozga tushirdi.

Yosh bo'lishiga qaramasdan, ko'p narsani aniq, tiniq ko'ra olgan. Bundan tashqari asar sodda, samimiy tilda bitilgani o'quvchini asarga bog'lay olgan. Yozuvchi har bir jarayonni shu darajada tushuntirib, tasvirlaganki, o'qiganimizda barchasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.bbc.com>
2. Ulug'bek Hamdam, "Muvozanat". "Yangi asr avlodi", - T: 2017, - 334 b.
3. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. -T.: 2006.
4. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. -T.: Yangi asr avlodi, 2002.
5. Norova M.B. Adabiyotshunoslikda ramz tadqiqi. - 2024.